

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT MODELINI RIVOJLANTIRISHNING UTUVOR YO‘NALISHLARI

Abdumalikova Busalima Abduvali qizi

“Menejment” fakulteti 2-kurs talabasi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

e-mail: busalimaabdumalikova21@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20457885>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi O‘zbekistonda ekologik yo‘naltirilgan iqtisodiy tizimga o‘tish mexanizmlarini shakllantirish va ushbu jarayonni jadallashtirishning strategik yo‘llarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ishda tabiiy resurslarni tejash, muqobil energetika salohiyatidan unumli foydalanish hamda makroiqtisodiy strategiyani ekologik mezonlar asosida modernizatsiya qilish masalalari rivojlangan davlatlar amaliyoti bilan qiyoslangan holda yoritilgan. Ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy iqtisodiyotga tatbiq etish orqali ishlab chiqarish tarmoqlarini ekologizatsiyalash va yashil loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi o‘rganilgan. Olingan natijalar asosida mamlakatimizda yashil iqtisodiyot modelini muvaffaqiyatli joriy etishning amaliy imkoniyatlari aniqlangan hamda istiqboldagi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, iqtisodiyot strategiya, ekologiya, barqaror rivojlanish, ekologik texnologiyalar, innovatsiyalar, ekologik barqarorlik, ekologik muammolar, barqaror rivojlanish, atrof-muhit, qayta tiklanadigan energiya, “yashil” o‘tish.

Abstract: This research focuses on forming the mechanisms for transitioning to an ecologically oriented economic system in Uzbekistan and analyzing the strategic pathways to accelerate this process. The study highlights resource conservation, the efficient utilization of alternative energy potential, and the modernization of macroeconomic strategies based on ecological criteria, comparative to the practices of developed nations. Furthermore, it examines the ecologization of production sectors and the financial support systems for green projects by applying advanced foreign experiences to the national economy. Based on the findings, the practical opportunities for the successful implementation of the green economy model in our country are identified, and future priority tasks are defined.

Keywords: green economy, economic strategy, ecology, sustainable development, ecological technologies, innovations, ecological sustainability, environmental problems, environment, renewable energy, “green” transition.

Аннотация: Данное исследование посвящено формированию механизмов перехода к экологически ориентированной экономической системе в Узбекистане и анализу стратегических путей ускорения этого процесса. В работе в сравнении с практикой развитых стран освещены вопросы сбережения природных ресурсов, эффективного использования потенциала альтернативной энергетики, а также модернизации макроэкономической стратегии на основе экологических критериев. Изучены процессы экологизации производственных отраслей и система финансовой поддержки зеленых проектов посредством внедрения передового зарубежного опыта в национальную экономику. На основе полученных результатов определены практические возможности для успешного внедрения модели зеленой экономики в нашей стране и обозначены перспективные приоритетные задачи.

Ключевые слова: зеленая экономика, экономическая стратегия, экология, устойчивое развитие, экологические технологии, инновации, экологическая устойчивость, экологические проблемы, окружающая среда, возобновляемая энергия, «зеленый» переход.

KIRISH

Bugungi kunda global miqyosda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ajralmas qismiga aylandi. O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarni o'zaro uyg'unlashtirish dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur tarkibiy qismlar o'rtasida optimal muvozanatni ta'minlash ijtimoiy adolatga erishish bilan bir qatorda, iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga keluvchi ekologik oqibatlarini to'g'ri baholash va boshqarish zaruratini yuzaga chiqaradi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda yashil iqtisodiyot modelini shakllantirish borasida xalqaro ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish jarayonlari faollashmoqda.

Ushbu yo'nalishda respublikamizda muhim huquqiy va institutsional asos yaratilgan bo'lib, 2019-yil 4-oktyabrda tasdiqlangan “2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini ‘yashil’ iqtisodiyotga o'tish strategiyasi” barqaror yuksalishga erishish yo'lida asosiy dasturiy xujjat bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur strategiyaning bosh maqsadi iqtisodiyot tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish hamda zamonaviy yashil moliyaviy mexanizmlarni joriy etish orqali ekologik xavfsizlikni mustahkamlashdan iboratdir. Strategik chora-tadbirlar natijasida 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi issiqxona gazlari chiqindilarini 2010-yil darajasiga nisbatan kamida 10 foizga qisqartirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini ekologik toza elektr energiyasi bilan to'liq ta'minlash ko'zda tutilgan. Shuningdek, motor yoqilg'ilari sifati va avtomobil sanoati texnologiyalarini takomillashtirish orqali ekologik samarali transport vositalarini, xususan, elektr transporti bozorini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi va ekologik texnologiyalarni shakllantirish hamda ularning zamonaviy sharoitda izchil rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan fundamental tadqiqotlar bugungi kunda global miqyosda ham, milliy miqyosda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, xalqaro miqyosda Tim Jacksonning iqtisodiy o'sish va barqarorlik muammolari bo'yicha ilgari surgan yondashuvlari, Jeffrey Sachsning barqaror rivojlanishga oid strategik tavsiyalari, Nobel mukofoti sohibi Elinor Ostromning resurslarni jamoaviy boshqarish modellariga doir nazariyalari, shuningdek, Robert Costanza va u bilan hamfikir olimlarning ekologik iqtisodiyot tamoyillari bo'yicha olib borgan chuqur ilmiy izlanishlari muhim nazariy asos sifatida e'tirof etiladi. Ayni vaqtda, O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyot va ekologik xavfsizlik sohalarida salmoqli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, iqtisodiyotni ekologik transformatsiyalash, resurslardan samarali foydalanish, uglerod neytralligi, bioiqtisodiyot va atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatadigan texnologiyalarni joriy qilish masalalari bo'yicha professor Sh. Tursunov, iqtisod fanlari doktori Shuhrat Yuldashev, S. Ilyosov, A. Jo'rayev, M. Sodiqov singari yetuk olimlarning ishlari diqqatga sazovordir. Ularning ilmiy tadqiqotlari milliy ekologik siyosatni shakllantirish, yashil moliya mexanizmlarini ishlab chiqish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda barqaror iqtisodiy modelni joriy etishda muhim amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

NAZARIY ASOSLAR

Zamonaviy iqtisodiyot ilmida yashil iqtisodiyot tushunchasi barqarorlik, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy tenglik tamoyillariga tayanuvchi mutlaqo yangi makroiqtisodiy model sifatida e'tirof etiladi. Ushbu konseptual yondashuv ekologik barqarorlikni ta'minlashni iqtisodiy o'sish sur'atlarining ajralmas va tarkibiy qismi deb hisoblaydi. Xususan, BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyaga ko'ra, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida tabiiy resurslardan unumli foydalanish, uglerod emissiyasini minimallashtirish, chiqindilarni kamaytirish hamda inson farovonligini yuksaltirish yashil taraqqiyotning asosiy mezonlari hisoblanadi.

Nazariy-metodologik jihatdan ushbu iqtisodiy model bir nechta fundamental maktablar g'oyalariga tayanadi. Jumladan, A. Pigouning “tashqi effektlar” nazariyasi, R. Costanza va D. Pearce tomonidan asos solingan ekologik iqtisodiyot maktabi, G. Brundtlandning barqaror rivojlanish modeli hamda N. Georgescu-Roegenning bioiqtisodiy yondashuvlari shular jumlasidandir. Mazkur ilmiy qarashlarning har biri sayyoramizdagi resurslarning cheklanganligini inobatga olgan holda, makroiqtisodiy yuksalishni tabiat qonuniyatlari va ekologik me'yorlarga to'liq muvofiqashtirish muammosiga tizimli yechimlar taklif etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy iqtisodiyotni “yashil” modelga o'tkazish jarayoni har bir davlatning tabiiy va inson kapitali salohiyati hamda makroiqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi. Ushbu transformatsiya an'anaviy, ya'ni resurslarni ekologik me'yorlarsiz sarflovchi “jigarrang iqtisodiyot” tamoyillaridan voz kechib, yanada keng qamrovli va ekologik barqaror mezonlarga tayanishni taqozo etadi. Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, xususan, quyosh energetikasini rivojlantirish bo'yicha o'tgan asrning 1980-yillaridayoq mustahkam poydevor qo'yilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda iste'mol qilinayotgan elektr energiyasining asosiy qismi, ya'ni 87 foizi neft va gaz resurslariga tayanuvchi issiqlik elektr stansiyalari hisobiga to'g'ri kelishi tarmoqni zudlik bilan modernizatsiya qilish zaruriyatini ko'rsatadi. Ushbu muammolarni tizimli hal etish maqsadida, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi muhim qaror qabul qilindi. Unga ko'ra, issiqxona gazlarini kamaytirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish, yiliga 200 million tup ko'chat ekish hamda maishiy chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha aniq rejalar tasdiqlandi

Quyidagi jadvalda “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishni taminlash bo'yicha ko'rsatmalar berilgan:

1-jadval. “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining rivojlanish bosqichlari¹

¹ <https://stat.uz/uz/sayti/ma'lumotlartiga/ko'ra/muallif/ishlanmasi>

Bosqichlar	Yillar	Asosiy g‘oyalar
1	1950-1960	Iqtisodiyotning atrof-muhit va insonga salbiy ta‘sirini anglab yetish
2	1960-1970	Inson uchun qulay atrof-muhit va tabiiy resurslarni saqlab qolish maqsadida tejamkor (ratsional) iqtisodiyotni shakllantirish
3	1980-1990	Iqtisodiy o‘shish va sanoat rivojlanishining ekologik jihatdan moslashishi
4	2000-2010	“Erkin bozor” ning biosfera resurslarini uzoq muddatli davrda saqlab qolish va ijtimoiy adolat manfaatlarini himoya qilish

O‘zbekiston keng hududi, qulay geosiyosiy o‘rni, boy tabiiy-moliyaviy resurslari hamda yashil texnologiyalar bozorining o‘tib borishi tufayli ekologik modelga o‘tish uchun ulkan salohiyatga ega. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ishlab chiqilgan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish konsepsiyasida birinchi navbatda islohot talab qiladigan eng muhim segmentlar sifatida chiqindilarni boshqarish, energetika va suv iste‘moli tarmoqlari belgilab berilgan. Mazkur dastur doirasida mamlakat oldida turgan asosiy strategik vazifalar yer, suv va biologik resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish, mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda ekologik bosimni yumshatish orqali aholi farovonligini ta‘minlashdan iboratdir. Yakuniy bosqichda ushbu chora-tadbirlar atrof-muhit sifatini yaxshilash bilan birga, mamlakatning milliy va ekologik xavfsizligini, xususan, strategik suv xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish samarali moliyaviy mexanizmlarni yaratish, qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish va ekologik siyosatni mustahkamlash bilan bevosita bog‘liqdir. Global yashil strategiyalarni milliy sharoitga moslashtirish ishlab chiqarish tarmoqlarida resurs tejamkorligini ta‘minlash imkonini beradi. Mamlakatimizning ushbu yo‘nalishdagi islohotlarini jadallashtirish uchun energetika balansida muqobil manbalar ulushini oshirish, agrar sektorda suv tejavchi texnologiyalarni kengaytirish va yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish taklif etiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

- <https://lex.uz/docs/-4539502#-4541764>
- 2019-yil 4-oktabrdagi “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” Iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-son qarori
- “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta barqaror yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947 sonli Farmoni.
- Yashil iqtisodiyot loyihasi: Devid Pirs, Anil Markandya va Edvard B. Barbier. Earthscan, London, Buyuk Britaniya, 1989. 192 bet
- Meyliev, O. R. (2017). Nalogovye faktory ekonomicheskogo razvitiya regionov. Ekonomi va biznes: nazariya i amaliyot, (5), 161-163.
- <https://stat.uz/uz/>

7. Toshev.N.J. Mintaqada turistik aglomeratsiyalar rivojlanishining ilmiy-uslubiy va nazariy jihatlari. O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi. ISSN 2181-502X Maxsus son-2. 2023.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida ”gi PF-5611-sonli farmoni, Manba: <https://lex.uz/docs/-4143188>
9. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligi <https://www.lex.uz/uz/>
10. Toshev.N.J. Qashqadaryo viloyati eko turistik aglomeratsiyasiya infratuzilmasining tahlili. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. 2024, 4(10), Vol. 4 Issue 10 | Pages 48- 53 | ISSN: 2181-1865. (08.00.00;05)
11. Toshev.N.J. Mintaqada turistik aglomeratsiyalarini tashkil qilishning diversifikatsiya tahlili. Science and education in agriculture. November 2024. Volume 11, Issue 11. ISSN: 3030-3222. Pages 235-242.
12. Toshev.N.J. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vositasi sifatida turizm aglomeratsiyasining ahamiyati. Biznes ekspert. 12 (192)-son, 2023. Iqtisodiy ilmiy-amaliy oylik nashr. Pages 62-64 12.04.2013-y. 0507-sonli.
13. Toshev.N.J. Mintaqada turistik aglomeratsiya turizm xizmatlari bozoridagi asosiy indikatorlari sifatida. Xorazm ma‘mun akademiyasi axborotnomasi. Pages 61-64 2024-1/2. ISSN 2091-573 X 29.12.2016-y 223/4-son qarori.
14. Toshev.N.J. Mintaqa turistik aglomeratsiyalari sayyohlik industriyasi ob'ektlarining ilmiy uslubiy nazariylari. Innovative academy. Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: muammolar va yechimlar” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 2024 3(2), Pages-11-16, <https://doi.org/10.5281/zenodo.10677445>